

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2025



ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, sentyabr

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Xaydarova Mashxura, Valiyev Gulam

AYOLLAR YENGIL KOSTYUMI UCHUN 100% PAXTA TOLASIDAN YARATILGAN NAQSHLI
TO'QIMA TUZILMASINI ISHLAB CHIQUISH 4-8

TARIX FANLARI

Kulboev Nishonboy

RESEARCH CONDUCTED IN UVOLSOY 9-12

Sodiqov Erali

YOSHLARDA VATANPARVARLIK RUHINI SHAKILLANTIRISHDA JADID
MARIFATPARVARLARINING ILG'OR G'OYALARIDAN FOYDALANISH 13-16

IQTISODIYOT FANLARI

Shukurov Ikrom

SAMARQAND VILOYATI TURIZM SOHASINING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINING
AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI TAHLIL ETISH 17-21

FALSAFA FANLARI

Yoqubova Nafisa

MILLATLARARO MADANIYAT INTEGRATSIYA JARAYONLARINING ASOSI 22-25

FILOLOGIYA FANLARI

Самиева Иродахон

КОРОТКО ОБ ИСТОРИИ СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ТЕОРИЙ В АМЕРИКЕ 26-31

Xoldorova Xulkaroy

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI 32-34

YURIDIK FANLARI

Sharipov Firdavs

OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TARIXIY-
HUQUQIY TAHLILI: SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI 35-39

Salomov Xumoyun

DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA PROKURATURA ORGANLARINING QONUNIYLIKNI
TA'MINLASHDAGI STRATEGIK VAZIFALARI 40-43

PEDAGOGIKA FANLARI

Mirzayeva Umidaxon

FIZIKA TA'LIM JARAYONIDA XALQARO BAHOLASH TOPSHIRIQLARI ASOSIDA BILIMLARNI
SHAKLLANTIRISH 44-46

TILSHUNOSLIKDA MATN VA UNING LINGVISTIK O'RGANILISH HOLATI

Xoldorova Xulkaroy Muzaffar qizi

Stajor o'qituvchi, QMU, Ingliz tilshunosligi kafedrası

Email: xoldorovaxulkaroy@gmail.com

Tel: +998 88 692 89 00

Nukus, Qoraqalpog'iston

Annotatsiya. Ushbu maqolada matnni lingvistik jihatdan o'rganishning dolzarb masalalari yoritilgan. Matn til birliklaridan yirik birlik sifatida qaralib, uning struktura semantika va pragmatika doirasidagi xususiyatlari tahlil qilinadi. Matn lingvistikasining shakllanish bosqichlari, asosiy nazariy yondashuvlari hamda ularning amaliyotdagi tatbii o'rganiladi. Xulosa o'rnida matnni lingvistik jihatdan chuqur tahlil qilish nafaqat nazariy balki amaliy tilshunoslik uchun ham muhim ekani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: matn, sintaktik birlik, abzas, lingvistik tahlil, nutq kategoriyasi.

THE TEXT AND ITS LINGUISTIC ANALYSIS IN LINGUISTIC STUDIES

Khaldorova Khulkaroy Muzaffar qizi

The Trainee teacher of Karakalpak State University

Annotation. This article explores the pressing issues related to the linguistic analysis of text. The text is considered as a major linguistic unit, and its features within the framework of structure, semantics, and pragmatics are analyzed. The stages of the formation of text linguistics, its main theoretical approaches, and their practical applications are examined. In conclusion, it is emphasized that a deep linguistic analysis of text is important not only for theoretical, but also for applied linguistics.

Key words: text, syntactic unit, paragraph, linguistic analysis, discourse category.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2025v1i8/n07>

Matn tushunchasining tilshunoslikda o'rganilish holati XX asr o'rtalarida g'arb olimlarini qiziqтира boshladi. Unga qadar tilshunoslik fani tilning barcha jihatlari jumladan, fonologik, morfologik, sintaktik tomondan tilshunoslikda ko'plab yutuqlarga erishildi. Ammo matn tushunchasini lingvistik tahlil qilishda bir qancha bir-biriga zid bo'lgan qarashlar, turli xil fikrlarga duch kelamiz. Misol uchun, matnning belgilari, tabiati nimalardan iboratligi, matnni nutqiy hodisa mahsuli deb atash lozimmi yoki matnni nutqiy hodisaning natijasi sifatida talqin etish kerakmi, matnni og'zaki nutq bilan bog'lab o'rganish kerakmi degan masalalar xususida turlicha qarashlarni uchratishimiz mumkin. Shundan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, matn hodisasi lingvistikada matn tushunosligi fanining o'rganish obyekti sifatida tadqiq qilinib, [4;]gapdan ko'ra yirik hajmli aloqa vositasi, nutqiy faoliyat mahsuli, muayyan qonuniyatlar asosida shakllangan nutq ko'rinishidir. Matn haqida mutaxassislar ko'plab bir-biriga zid bo'lgan ta'riflarni keltirib o'tishgan. Masalan, professor X.Z.Xayrullayev xatto bitta harf ham matn bo'lishi mumkin degan fikrni aytib o'tgan. Buning isboti tariqasida birgina "M" harfi yaqin orada metro borligini anglatishini misol keltirgan.[7;37b]

Tilshunos N.Turniyozov " Matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi mumkin. Ammo olim matn lingvistikasi muammolarini hal qilishda, matnning bir so'zli, birikma yoki biror sodda gap bilan

ifodalangan ko'rinishi asosida tadqiq qilish orqali maqsadga erishib bo'lmashligini aytib o'tgan. Chunki bunday matnlar yordamida til sistemasi unsurlarining nutqqa ko'chirilishiga oid masalalarni to'laqonli hal qilib bo'lmaydi.[6;21b]

Matn lingvistikasi muammolari juda ko'plab tilshunoslarning e'tiborini tortgan. Jumladan, V.Dreassler, P.Hartman, I.Galperin, K.Gauzenblas, N.Pospelov, T.Silman, K.Solganik, L.Loseva, O.Moskalskaya, K.Abdullayev, N.Navro'zova kabi tilshunoslar matn kategoriyasi haqida muhim fikrlarni ilgari surishgan.

Matn tilning eng katta birligi hisoblanib, uni tadqiq etish rus tilshunosligida XX asrning 30-yillarda boshlangan. Bir qancha rus olimlarining jumladan, A.M.Peshkovskiyning "Russkiy sintaksis v nauchnom obshenii", V.Vinogradovning " O xudojestvennoyproze" , L.A.Bulaxovskiyning "Kurs russkogo literaturnogo yazika" kabi asarlarida matnning o'ziga xos lisoniy xususiyatlari singari muammolarni o'rganish boshlangan.

Hozirgi tilshunoslikda matn atamasiga turlicha ta'riflar berilmoqda. Masalan, P.Giron matnga o'zaro bog'langan birliklar butunligi sifatida qaraydi va bu butunlikni tashkil etuvchi belgilar ishoralar uslubiy taassurotni ifodalash maqsadida bir-biri bilan munosabatga kirishib, yagona sistemani tashkil etadi.

Matn tilshunosligida matn mazmuni va matn ma'nosi atamalari bir- biridan farqlidir. Matnning butun bir mazmuni undagi ma'lumot yoki axborotga bog'liq hisoblanadi. Lekin uning ma'nosi gap sintaktik butunlik, abzats kabi matn birliklariga xos axborotdir. Matnda ifodalanoyatgan axborotning batamom yakunlanganligidan uning mazmunini aniqlasak, matnning ma'nosini esa tugal fikrning yana davom etishini taqazo etadi. Bundan shuni anglaymizki, gap va matn o'rtasidagi asosiy farq yakunlanganlikning mutlaqligida, tugallanganlikning nisbiyligidadir. Matnni nutq kategoriyasi sifatida talqin qilish, bizningcha, maqsadga muvofiqdir. Zotan, matn diskurs mahsulini taqozo etar ekan, uni til kategoriyasi tarzida o'rgana olmaymiz. Bunday bo'lishi tabiiydir, albatta. Chunki til kategoriyalarining o'rni gapgacha bo'lgan til birliklari doirasida belgilanadi. Gap esa nutq birligidir. Unda til birliklari o'z qo'llanish ifodasini topadi. Mashhur fransuz tilshunosi Emil Benvenistning to'g'ri ta'kidlashicha, gap til birliklarinig qo'llanish obyekti sanaladi. Olim bu xususda so'z yuritganida quyidagilarni alohida qayd etadi: «Gap – bu tilning qo'llanilishi, amal qilinishi, hayotidir. Gapda biz tilning belgilar sistemasidan iborat ekanligi haqidagi tushunchamizdan birmuncha uzoqlashib, boshqa bir dunyoga – tilning aloqa vositasi ekanligini taqozo etuvchi voqelikka kirib boramiz. Mazkur voqelik nutqda (le discours) o'z ifodasini topadi»[1;139b].

Ana shuning o'zi ham gapning nutq birligi ekanligini to'liq dalillaydi. Shunday bo'lgach, matnning nutq birligi ekanligi izoh talab qilmaydi. Matnning nutq birligi (kategoriyasi) ekanligi masalasi bevosita "nutqiy jarayonning o'zi" va "nutqiy faoliyat natijasi" tushunchalari bilan uzviy bog'lanadi. Chex olimi K.Gauzenblas matnni ham nutqiy faoliyat sifatida, ham nutqiy faoliyat mahsuli (natijasi) tarzida talqin etadi. Bunda yozma nutq nutqiy faoliyat mahsuli sifatida, og'zaki nutq esa nutqiy jarayon deb talqin etiladi.[3;67b]

Ko'rinadiki, K.Gauzenblas matnning har ikki turini ham to'liq tan oladi. Albatta, ayni paytda olimning mazkur mulohazasiga e'tiroz bildirish qiyin, zero, og'zaki matn ham, yozma matn ham matndir. Biroq ba'zi tilshunoslar ilmiy nuqtayi nazardan og'zaki matnni o'rganish qiyinligini alohida ta'kidlaydilar. Darhaqiqat, og'zaki matnda noto'liq gaplar, uziq-yuliy qurilmalar, parsellyativ jumlar ko'p uchraydi. Bu esa aksariyat hollarda bunday matnlarni ilmiy asosda o'rganishga monelik qiladi. Rus tilshunosi I.R.Galperin bu xususda mustaqil fikr

bildiradi. Olim matn har tomonlama mukammal holatga keltirilgan yozma nutq mahsulini taqozo etishini alohida ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ilmiy tadqiqot ishlarini faqat yozma nutq materialida olib borish mumkin.[2;5b]

I.R.Galperin matnning faqat yozma shaklini tan olar ekan, uni voqelikning muayyan bir bo'lagining (parchasining) grafik ifodalanishi deb biladi[2;72b]. Bu o'rinda olimning quyidagi fikrini keltirishni maqsadga muvofiq topdik: «Необходимо иметь в виду, что текст представляет собой некое обрзование, возникшее, существующее и развивающееся в письменном варианте литературного языка».[2;12b]

Yuqoridagilardan tashqari, bugungi tilshunosligimizda matnni stilistikada o'rganish lozimmi, yoxud buning uchun "matn lingvistikasi" deb ataluvchi yangi sohani ilmiy asoslash kerakmi, degan savollar ham hali o'z javobini to'liq topganicha yo'q. Nazarimizda, matnni sintaktik birlik tarzida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunga matn lingvistikasining alohida soha sifatida ilmiy asoslanganligi monelik qilmaydi.

Shuni ham aytish kerakki, tilshunoslik fanining hozirgi taraqqiyoti davriga qadar lingvistik tahlilning eng yuqori pog'onasi gap sanalib kelindi. Bu xususda aytilgan polyak tilshunosi M.R.Mayenovaning quyidagi fikri ibratlidir: "Yaqin davrlarga qadar lingvistik kuzatuvlar gap shakli nihoyasiga yetgan joyda tugatilar edi. Bir necha gapni o'z ichiga oladigan matn esa mazkur ilmiy izlanish doirasidan tashqarida qolar edi".[5;299b]

Adabiyotlar/Literatypa/References:

1. Бенвенист Э.Общая лингвистика.-М.,1974.-С.139.
2. Гальперин И.Р.Текст как объект лингвистического исследования.-М.,1981.-С.5-12-72
3. Hausenblas K. Vystavba jazykovych projevu a stil.-Praha,1972,c.67
4. M.Qurbonova, M . Yo'ldashev "Matn tilshunosligi", - Toshkent, " universitet 2014"
5. Mayenovo M.R. Teoria textu tradyeyjne zagadniema poetyki.-In: Texti jezyk Problemy semantyczne.- Praga, 1974(-C.299).
6. N.Turniyozov " Matn lingistikasi ", - Samarqand, Sam DCHTI, 2004, 21-bet
7. X.Z Xayrullayev. Prigadivlik hodisasi va uning ifoda obyektleri. Samarqand 2002 jami 100 bet. B.37

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2025-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. 1-
jild, 8-son (sentyabr, 2025-yil). – 47 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 26-sentyabr

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.